

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA O'YIN TURLARINI TURLI YOSH  
GURUHIDAGI BOLALARGA O'RGATISH USULLARI**

Suvanova Sevara Baxodir Qizi

*Termiz davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lif  
metodika kafedrasи o'qituvchisi*

**Annotasiya:** *Ushbu maqola Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida bolalarga harakatli o'yinlarni qay tartibda o'rgatish, tarbiyachining qanday qoidalarga amal qilishi, harakatli o'yinlarning bolalar yoshiga mosligi, bolalarga qanday tasir qilishi haqida.*

**Kalitso'zlar:** *Maktabgacha, ta'lif, tashkilot, bolalar, harakatli o'yin, o'rgatish, usul, tashkil qilish, guruh, o'tkazish.*

Insoniyat madaniyatining xazinalaridan biri- bu harakatli o'yinlardir. Ularning turlari har xil. Harakatli o'yinlar odamlarning barcha moddiy va ma'naviy ijodiyotini aks ettirib kelgan va yana ham boyitib kelgan. Tabiydirki, harakatli o'yinlarning kelib chiqishi, mazmuni va ahamiyatini o'r ganib kelishda ko'pgina bilim tarmoqlari azaldan o'r ganib kelmoqda. Jumladan, tarix, etnopedagogikka, antrropologiya, pedagogika hamda jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyati, shular qatorida boshqa fanlar ham qiziqib kelmoqda. Shu jumladan O'rta Osiyoda harakatli o'yinlarning tarqalishi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Hozirgi kunda bolalarga harakatli o'yinlarni o'rgatish va shug'ullanish maktabgacha yoshidagi bolalardan boshlab o'rgatiladi. Davlatimiz rahbari ham bunga juda katta etibor qaratmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori (№PQ-4312-son 08.05.2019)MTT larda mashg'ulotlar o'yin tarzida olib boriladi. Maktabgacha ta'lif muassasalarida harakatli o'yinlarni tashkil qilish va bolalarga o'rgatishda quyidagi qoidalarga alohida e'tibor berish lozim: - yugurish, sakrash, uloqtirish, irg'itish, ushlab olish, muvozanatni saqlash va shu kabi jismoniy harakatlarni tartibli bajarish; - sabr-chidamga o'rgatish; - o'yinga ruhiy jihatdan tayyorlash; - o'z-o'zini tutish va o'ziga bo'lgan ishonchni tarbiyalash; - qat'iyatlilik ko'nikmalarini hosil qilish; - fikr-mushohadaga o'rgatish; topqirlik ko'nikmalarini shakllantirish; - hozirjavob bo'lishga tayyorlash; - o'yinlarni bolalar bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil qilishga yo'naltirish; - har bir o'yinning pedagogik jihatlarini nazardan qochirmaslik; - ushbu jarayonda bolalarning jismoniy tayyorgarligi va yosh xususiyatlariga e'tibor berish; - birdamlik va hamandardlik xususiyatini shakllantirish. Maktabgacha ta'lif muassasalari tarbiyachilari bu ko'rsatmalardan to'g'ri va o'z o'rnida foydalanishlari zarur. Maktabgacha yoshidagi bolalarning hozircha o'zini yaxshi tuta bilmasligini e'tiborga olib, guruhlarni ikki jamoaga emas, balki 5-6 guruhlarga ajratib olish zarur. Bu guruhlar ketma-ket holatda turmay, bir-birini yaxshi ko'rib turishi uchun o'tirib olishi ham mumkin. Chunki navbat bilan startga chiqish tartibini saqlab turadilar. Bunday o'yinlarda bolalar bir-birini kuzatadi, har bir

guruhdan bitta ishtirokchi tezlikda, chaqqonlikda, aniq nishonga otishda mahoratini ko'rsatadi. G'olib chiqqan o'yinchi o'z jamoasiga ochko keltiradi. O'yin tugagandan so'ng to'plangan ochkolar hisoblab ko'rildi. Eng ko'p ochko to'plagan jamoa g'olib deb topiladi. O'yinni tashkil etishda barcha shart-sharoitlar to'g'ri hisobga olinsa, uning tarbiyaviy ahamiyati oshib boradi. Buning uchun o'yin paytida bo'ladigan chiziqlar, chegaralar masofalari, kerakli o'yin ashyolari: koptok, bayroqcha kabilar taqsimlab berilishi lozim. Keyinchalik esa bolalarni o'z-o'ziga xizmat qilishga odatlantirish kerak. Ko'pincha tarbiyachi bu tashkiliy ishlarni bolalardan biri yoki ikkisiga navbatchi sifatida topshiriq berib o'rgatadi, shunda har safar navbatchi almashtirib turiladi. Tarbiyachi o'yin o'tkazishdan oldin uni qanday tushuntirishni o'ylab ko'rishi kerak. Tushuntirish juda qisqa, aniq, lo'nda bo'lishi kerak. O'yin mazmuni, qoidalarini tushuntirishda mayda gaplardan xoli bo'lish zarur. Undan keyin o'yinchilardan kim qaysi yerda turishini aytib o'tish kerak. Bolalarga tanish o'yinni o'tkazishda har gal to'liq tushuntirish shart emas, ammo o'yin qoidasini tarbiyachining o'zi ta'kidlab o'tishi zarur. O'yin qoidasini bajarishda tez-tez xatoga yo'l qo'ygan bolani ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'yin o'tkazilayotgan vaqtida tarbiyachi faqatgina kuzatuvchi bo'lib qolmasligi kerak. O'yinni shunday o'tkazish kerakki, bolalar undan quvonib, qanoat hosil qilib, murakkab qoidalarni o'rganib olishsin. Tarbiyachi o'yin davomida qatnashuvchilarni kuzatib, alohida bolalarga e'tibor berib, gohida rag'batlantirib, gohida qoida buzganlarga tanbeh berib, rahbarlik qilishi kerak. Harakatli o'yinlarni bolalar yoshiga mos holda o'tkazish zarur. Harakatli o'yinlar dastur talablariga muvofiq asta-sekin murakkablashtirib boriladi, bolalar ongini o'sishi, ular to'plagan harakat tajribasini, maktabga tayyorlash zaruriyatini hisobga olgan holda o'zgartirib turiladi.

Kichik guruhda mazmuni va qoidasiga ko'ra sodda bo'lган mazmunli va mazmunsiz harakatli o'yinlar tashkil etiladi. Bu o'yinlarda barcha bolalar bir xil rol yoki harakat topshirig'ini tarbiyachining bevosita ishtirokida bajaradilar. 3 yoshli bolalar asta-sekin yakka holda rollarni bajarishga o'rgatib boriladi.

O'rta guruhda eng oddiy musobaqa usulidagi o'yinlarni yakka tarzda ham, jamoa tarzda ham o'tkazish mumkin.

Katta guruhda bolalar uchun harakatli o'yinlar o'z mazmuni, qoidalari, rollarning miqdori, topshirishni jamoa musobaqasiga joriy etishga ko'ra murakkablashtiriladi.

Maktabga tayyorlov guruhi bolalari birmuncha murakkab harakatli o'yinlar, shuningdek jamoa musobaqalaridan iborat jamoa o'yinlarni, o'yin estafetasi, sport o'yinlarini o'ynaydilar. Bularning hammasi chaqqonlik, tezkorlik, chidamlilikni rivojlanishi, harakat ko'nikmalrining takomillashuviga, axloqiy-irodaviy sifatlarni tarbiyalashga yordam beradi. Bundan tashqari bolalarga milliy harakatli o'yinlar ham o'rgatiladi. Milliy harakatli o'yinlar bolalarning yosh xususiyatlari o'yindagi harakatlar rivojiga qarab takomillashib boradi. I-2yoshli bolalar bilan o'ynaladigan o'yin turlari. «Barmoqqa-barmoq», «G'oz-g'oz», «G'oz tursin», «Bo'p-bo'p», «Toy-toy», «Poyezd», «Achom-achom»

o'yinlari go'dak endi bir-ikki qadam tashlashni o'rganayotgan vaqtda gavdasini to'g'ri tutishga yordam beradigan o'yinlar hisoblanadi.

3-4 yoshli bolalar bilan o'ynaladigan o'yin turlari: "O't o'yin", "Kesak qo'ydi", "Ko'z boylag'ich", "Choriy chambar", "Avalakam", "Tayoq irg'itish", "Quloq cho'zish", "Chitti gul", "Xolam mehmonga keldi", "Uchdi-uchdi".

4-5 yoshli bolalar bilan o'ynaladigon o'yin turlari: "Chir-Aylanma", "Chillak", "Tortishmachoq", "Lafta", "Dor o'yin", yoshdagagi bolalar uchun o'yinlar: "Chavandozlar", "Doiraga tort", "Do'ppi yashirma", "Sapalak", "Besh tosh", "Oq terakmi ko'k terak". Bu o'yinlar orqali bolalarda chaqqonlik, o'z-o'zini boshqara olish va o'ziga ishonch tarbiyalanadi, qat'iyatlilik ko'nikmalari shakllanadi, fikrlashga o'rgatilib boriladi, topqirlik qobiliyatları rivojlanadi, hozirjavob bo'lishga tyorlanib boradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sh.M.Mirziyoyev Oliy majlisga murojati. "Xalq so'zi" gazetasi

2. PQ-3261 09.09.2017 Maktabgacha ta'lif tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida

3."Maktabgacha ta'lif va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ 595. T.2019

4. Maktabgacha ta'lif va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida. 802-sod qarori T.2020 y

5.O'zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha yoshdagagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablari T. 2018

6."Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. T.2018

7."Maktabgacha pedagogika" F.R.Qodirova, SH.Q.Toshpo'latova, N.M.Kayumova, M.N.A'zamova . T. 2019

8. Davronov I.E., Jurayev B.T. Pedagogika va psixologiya fanlarini o'qitish metodikasi.

-B.: Durdona, 2019

Internet saytlari:

1. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
4. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)